

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Tursunov, A.Ibragimov, U.Ishimov	
Farg'ona vodiysida o'sadigan <i>cistanche mongolica</i> o'simligining poya qismi flavonoidlar tarkibi va miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografik usulda aniqlash.....	198
Sh.Turg'unboyev, H.Toshov, A.Xaitbayev	
Gossipolning benzidin bilan yangi shiff asoslari sintezi	203
X.Trobov, R.Djurayeva, X.Karimov, Z.Islomova	
Kuchli kislotalar eritmalarida polivinilspirit gelining bo'kishi.....	207
M.Axmadaliyev, I.Sharofiddinov	
Metanning piroлизlashdagi chiqindilarini qaytaishlash omillari.....	212
M.Axmadaliyeva, M.Axmadaliyev	
11-rafinatni parafinsizlantirishda erituvchi tarkibining ta'siri.....	217
U.Yusupaliyev, T.Amirov	
Bitum emulsiyasi qo'shilgan sement bilan ishlov berilgan shag'al-qum qorishmalari bilan asoslarni qurish uslublari	222
N.Dexqanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,	
NaX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi	229
I.Asqarov, X.Isaqov, S.Muhammedov	
Furfurolidenkarbamidning mass-spektroskopik va termik tahlili	237
F.Xurramova, S.Zokirov, Sh.Yarmanov, S.Botirov, A.Inxonova	
Tabiiy polimerlarga sun'iy eritmalaridagi Pb () ionlarining sorbsiya kinetikasi	240

BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

I.Zokirov, D.Asqarova, G.Zokirova	
<i>Leptinotarsa decemlineata</i> say, 1824 invaziv turining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalish xususiyatlari	245
N.Abdullayeva, M.Davidov	
Assortimentni kengaytirish va yumshoq pishloq ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari	250
A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Haydarov	
Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash	254
R.Jamolov, O.To'rayev, N.Xoshimova	
Farg'ona viloyatida ona asalarini sun'iy usulda urug'lantirishning uning tuxumdonligiga ta'siri.....	258
G.Yuldashev, D.Darmonov, I.Mamajonov	
Minerallashgan suvlар bilan sug'orishdagi tuproqning tuz balansining o'zgarishi	262

ILMIY AXBOROT

A.Bababekov	
Marosim iqtisodiyoti: nikoh to'yi marosimlari misolida (iqtisodiy antropologik tahlil)	268
S.Ruziyeva	
O'zbekistonda san'at menejmenti: asosiy yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalari	274
O.Abobakirova	
Abdulla Avloniy hikoyatlarining badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati	278
D.Nasriyeva	
Isajon Sulton asarlarida presedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida.....	283
I.Raufov	
O'zbekistonda neft-gaz tizimi istiqbollari	287
N.Jumaniyazova	
O.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarining badiiy tahlili	290
E.Nasrullahov	
Navoiyshunos S.Olimov tadqiqotlarida ulug' shoir ma'rifiy talqinlarining tadqiqi.....	293

**NAVOIYSHUNOS S.OLIMOV TADQIQOTLARIDA ULUG' SHOIR MA'RIFIY
TALQINLARINING TADQIQI**

**В ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТАХ УЧЁНОГО-НАВОИВЕДА С.ОЛИМОВА О
ПРОССВЕТИТЕЛЬСКИХ ИСТОЛКОВАНИЯХ ВЕЛИКОГО ПОЭТА.**

**RESEARCH OF EDUCATIONAL INTERPRETATIONS OF THE GREAT POET IN THE
RESEARCH OF THE NAVOI SCIENTIST S.OLIMOV**

Nasrullayev Elmurod Jumaboyevich¹

¹Nasrullayev Elmurod Jumaboyevich

– JDPU f.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada navoiyshunos olim S.Olimov ilmiy tadqiqotlarida Alisher Navoiy shaxsiyat va ma'rifiy-badiiy tafakkur talqinlarining o'rganilishi haqida gap boradi.

Аннотация

В этой статье, в исследований наукоисследователя С.Олимова идет речь о личности Алишера Навои и об изучении истолкования его художественно-просветительского мышления.

Abstract

This article will talk about the study of the interpretations of Alisher Navoi personality and educational-artistic thinking in the scientific research of the Navoi scientist S.Olimov

Kalit so'zlar: navoiyshunos, tadqiqot, mafkura, tariqat, ma'rifat, qit'a, devon, matn, sharqshunos.

Ключевые слова: Навоивед, исследование, идеология, (tariqat)-путь духовного совершенствования, просвещение, (китъа- короткое стихотворение) диван (сборник стихов одного поэта), текст, востоковед.

Key words: navoi scientist, research, ideology, sect, enlightenment, text, orientalist.

KIRISH

Atoqli navoiyshunos olim Sultonmurod Olimov o'zining bir qator tadqiqotlarida Hazrat Navoiyning «nazariy-falsafiy jihatdan, ya'ni dunyoqarash-u mafkura ma'nosida» tayangan manbalardan uchinchisi bo'lgan tasavvuf falsafasi, unda shoir doxil bo'lgan tariqat – naqshbandiya haqida o'z ilmiy xulosalarini bayon qiladi[1].

Olim o'z tadqiqotining avvalida taniqli rus sharqshunosi, professor E.E.Bertelsning: «Navoiyni bilish uchun uning kutubxonasidan to'la boxabar bo'lish kerak», –tarzida aytgan bir yaxshi xulosasi borligini keltirib, hazrat Navoiyni o'rganishga tutingan har bir tadqiqotchi oldida bu ulug' shoir tayangan manbalardan to'la xabardor emaslik muammosi ko'ndalang turishini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, Hazrat Navoiy o'z asarlarida so'z san'ati uchun maxsus ajratgan boblarida qaysi daryolardan suv ichgani haqida ozmi-ko'pmi bayon etgan. Ustoz navoiyshunos Navoiy hazratlari nazariy-falsafiy jihatdan, ya'ni dunyoqarash va mafkura ma'nosida tayangan manbalar haqida fikr yuritar ekan, ularning birinchisi– Qur'oni Karim, ikkinchisi – hadisi sharif, uchinchisi – bu ikkisidan kelib chiqqan tasavvuf falsafasi ekanligini ta'kidlaydi[2].

Hazrat Navoiy tasavvufda doxil bo'lgan tariqat esa naqshbandiya ekanligi barchaga ayon. Shu nuqtai nazardan, navoiyshunos olim dastlab Bahouddin Naqshband shaxsiyatini aniqlashga, bu ulug' zotning «Balogardon» rutbasi bilan nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Pokiston, shuningdek, arab davlatlarida ham mashhurligi sababini ochib berishga harakat qiladi. Olim ushbu tadqiqoti mobaynida naqshbandiya tariqati, uning yassaviyadan farqli jihatlari, naqshbandiya ta'lilotining adabiyotimizga ta'sirini o'rganish asosida Alisher Navoiyning Bahouddin Naqshband va u kishi takomillashtirgan tariqat aqidalariga munosabatini ko'rsatib beradi. S.Olimovning fikricha, shu paytlargacha Alisher Navoiy ijodiyotini naqshbandiya tariqati g'oyalari bilan uzviy aloqadorlikda ko'zdan kechirishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yaratilmaganligi sabablihozirgi sharoitda har bir navoiyxon bu masalada o'zicha izlanishga majbur. Shuning uchun Abdusalom Abduqodirovning Navoiyning naqshbandiyaga munosabatini o'rganishni hozirgi o'zbek adabiyotshunoslignining birinchi darajali rejali qatoriga qo'shgan[3]ligini ma'qullaydi.

Olimning fikricha, turkiy dunyo Alisher Navoiydek ulug' dahodan qanchalar minnatdor bo'lsa, Bahouddin Naqshbandsiz bu shoir ijodini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, naqshbandiya ta'limoti Navoiy ijodining g'oyaviy asosini – mafkurasini tashkil etadi. Shu sababli shoir o'z asarlarida komil inson bo'lishning aynan naqshbandiyona tartibi, yo'l-yo'rqliari, shior-u qoidalari insoniy timsollar, xayotiy voqealar asosida dalillashga harakat qiladi, o'z ijodida komil inson bo'lishning naqshbandiya yo'lini tutgan kishilar timsollarini yaratadi. Bu bilan shoir mazkur tariqat g'oyalarini ommaga badiiy adabiyot vositasida targ'ib etgan buyuk naqshbandiy sohibi qalamlardan biri ekanligini isbotlaydi. Darhaqiqat, u naqshbandiya g'oyalarini nafaqat o'zining yirik asarlari – dostonlarida, balki, g'azal va qit'alarida ham xalqqa singdirish imkoniyatlari topgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Navoiyshunos olim o'z tadqiqotining «Qit'alarga singgan qat-qat g'oyalar»[2.3] bobida Alisher Navoiy she'riyatida naqshbandiya tariqati g'oyalarining talay jihatlari talqin qilinib, tahlil etilgan, sharhlangan, targ'ib qilinganligi shoirning mazkur falsafaning u yobu masalasiga bevosita munosabatini aniqlash imkonini berishini ta'kidlaydi va buni ulug' shoirning «G'aroyib us-sig'ar» devonidagi qit'alarning dastlab kibr nechtasining tahlili misolida isbotlashga harakat qiladi.

Olim devondagi qit'alarning «G'aroyib us-sig'ar» muqattaotining sarsuxanlari» degan umumiy sarlavha ostida ma'lum ichki tartib bilan joylashtirilganligiga e'tibor qaratib, ularning birinchisi, an'anaga ko'ra, bevosita Olloh madhida bo'lgan va «Tengri zoti haqiqatidakim, xiradmabhu nodondur va ahli xirad fartutu hayron» degan sarlavha qo'yilgan qit'a sharhini keltirib o'tirmay, sarlavhani izohlash bilan cheklanadi: undagi «mabhut» (hayron), «xirad» (aql) va «fartut» (zaif) so'zlarining tarjimasini keltirib, Tangri zoti haqiqatini anglashda aqlning hayron-u nodonligi, aql egalarining zaif-u hayronligi haqida qit'a va'da qilinayotgani ma'lum bo'lishini ta'kidlaydi[2.88].

Navoiyshunos olim ikkinchi qit'ada payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom haqlaridagi na't-qit'aning ham sarlavhasini keltirish bilan kifoyalanadi: «Rasuli a'zam sha'nidakim, quyoshdin olamoroyroq durunayf qilgan xuffoshdin tiyraroq». Ko'rinish turibdiki, qit'a «Quyoshdan ham olamni bezovchiroq» va buni «inkor qilgan shabko'r dan xiraroq» bo'lgan Rasuli a'zam sha'niga bag'ishlangan.

Navoiyshunos olim uchinchisidan boshlab qit'alarmi to'laligicha izohlashni boshlaydi: «Fano sharbati bobidakim, ta'mi zahri qotildur-u, baqoyi abad no'shi ul zahrdin hosil» – «Ta'mi zahri qotil, abadiylik u zaharni ichishdan hosil bo'ladigan fano sharbati haqida» deb nomlangan ushbu qit'ada shoir fanoga yetishning mashaqqatligi, lekin ana shu mashaqqatni bo'yingga olgan kishigina baqoga ham musharraf bo'ladi, degan g'oyani olg'a suradi. Olim buni oddiygina ma'noda tushunganda ham, sarlavhaning o'zidayoq bir buyuk falsafa yashiringanligini ta'kidlarkan qit'ani to'laligicha keltirishni lozim topadi:

*Foniysi mutlaq o'lmayin solik,
Anga yo'qtur umidi maqsadi kull,
Qora tufroqg'a singmagan qatra,
Andin imkoni yo'q ochilmoq gul*[4].

Ya'ni agar solik foniyi mutlaq bo'lmasa (o'zligidan butunlay kechmasa), maqsadi kull – barcha niyatiga eta olmaydi, boqiy bo'lolmaydi. Qatra gul bo'lib ochilishi uchun, albatta, qora tuproqqa singishi lozim. Zero, qatra qachonki o'zligidan kechib, qora tuproqqa singgachgina yuqori darajaga ko'tariladi – gulga aylanadi.

Olim ushbu qit'adagi fikrni tasavvufning har qanday tariqati uchun hamshior bo'lgan g'oya sifatida baholaydi va bunga barcha tariqatlar hamfano orqali baqoga yetishishni targ'ib qilishini isbot sifatida keltiradi.

Navoiyshunos olim «G'aroyib us-sig'ar» devonidagi to'rtinchi qit'a sharhida shoirning masalani yanada nozikroq qo'yanini ta'kidlaydi buning isboti sifatida qit'a sarlavhasiga diqqatni tortadi[2]: «Fano maqomiga yetgan solik vasfidakim, moldin anga ziyon yo'qturu johtin – nuqson», ya'ni fano maqomiga etgan solik – sufiygamoldan ziyon va mansabdan nuqson yo'q. Bir qarashda solik hamda boylik va mansab bir-biriga umuman mos kelmaydigan, obrazli qilib aytganda, olamning ikki qutbidagi tushunchalarni anglatadi, chunki boylik va mansab solikning yo'liga to'siq bo'lib, uni asl maqsadidan chalg'ituvchi vosita sanaladi. Hazrat Navoiyning qit'aga bunday sarlavha qo'yishi tushunarsizdek tuyuladi.

Olim buni Navoiyning o'zi «tushuntirishini» ta'kidlaydi:

*Soliki ozodani ko'rsang g'aniy, qilgay debon,-
Mol aning man'i suluki, qilmag'il inkor anga.*

Kema tiyri mol aro bo'lmish muqayyad demagil.

Ko'rki, ancha mol o'lurmu moni'i raftor anga[4].

Ya'ni komil solik – so'fiyni boy holda ko'rsang, boylik uning suluki – tariqatdagi yo'lida man qilingan deb, uni inkor qilmagin. Kemaga yuklangan mol(boylik)lar taxlami kema ustuni(machtasi)ni tik tutib turibdi, demagin, kemaga yuklangan shuncha mol (yuk) uning suvda suzishiga monelik qila olmasligini ko'r.

Olim qit'ani sharhlar ekan, unda qo'llangan so'zlarning har bir ma'nosiga alohida to'xtalib, ularning qit'adagi asosiy g'oyaga ta'sirini ko'rsatishga intiladi. Jumladan, qit'adagi «g'anisi» so'zini moddiy boy kishiga nisbatan ishlatalgan, deb tushunilsa, unda shoirning fikri tasavvufning mohiyatan boylikka qarshi targ'ib olib borgan falsafaga umuman zid bo'lib chiqadi. Olim bu muammoni hal qilish uchun tasavvufda barcha masalalarni keskin qilib qo'ygan Shayx Abu Bakr Varroqning boylikka munosabati haqidagi hikoyatni keltiradi: «Bir kishi Shayxning o'zidan o'git istadi. Unga: «Ikki jahoning sharri (yomonligi) mol ko'pligidadir, xayri (yaxshiligi) esa Ollohning bergeniga qanoat qilmoqlikdadir.Borgil, bul o'gitni tutgil, najot topgaysen», – dedi[5]».

Navoiyshunos S.Olimov yuqoridagi qit'ada ko'tarilgan masalaning mohiyatini to'g'ri anglash uchun Navoiyning naqshbandiya tariqatidagi mutafakkir ekanini yodga olish kerakligiga diqqatni tortadi[2]. Zero, naqshbandiyada ham tasavvufning barcha bosh aqidalari aynan tushuniladi va unga amal qilinadi. Amal qilish jarayoni ko'proq oshkora emas, pinhona yuz beradi, ya'ni tashqi tarafdan qaraganda, naqshbandiyalar biron masalada ham oddiy, tariqat yo'lini qabul qilmagan kishilardan keskin ajralib turmaydilar. Olim ularning ham hamma qatori tirikchilik qilishlari, kerak bo'lsa, mol-mulk yig'ib, boylik to'playverishlari ham mumkinligini ta'kidlar ekan, naqshbandiyaning Bahouddin Balogardondan keyingi eng mashhur piri – Xoja Ahror Valiy zamonasining haddan tashqari badavlat kishilaridan biri ekanligini misol tariqasida keltiradi. Shunisi ahamiyatlici, olim Navoiyning o'zi ham katta boylardan bo'lganini, hatto Sulton Husayn mirzoning davlat xazinasida moliyaviy mushkulotlar kelib chiqqanda shohga mablag' tarafidan yordam ham berib turganligini ham nazardan qochirmaydi. Olimning fikricha, boy bo'lism – solikning zohiriy tarafi, zohir esa mohiyatni, ya'ni botinni belgilamaydi. Naqshbandiyada Ollohga etishish yo'li botinan, ya'ni qalban kechaveradi. Olim bu qit'ada shoirning mabodo solikni boy ko'rsangiz, unga ta'na qilishga shoshilmang, uning Ollohga intilishi uchun bu boylik xuddi kemaning suzishiga yuklari xalaqit bermaganidek, hech ziyon yetkazmaydi, demoqchiligin ta'kidlaydi[2.91:92].

Navoiyshunos bu qit'a mutolaasi jarayonida o'quvchi ko'nglidan bir ishtiboh kechishi mumkinligini aytib o'tadi: tasavvuf qoidasiga ko'ra, solik tinimsiz o'zligidan qutulib borishi lozim bo'lsa, nega Navoiy bu qit'asida o'zlikdan qutulishga xalaqit qiladigan mol-mulk va amal solikda ham bo'lismeni ta'kidlayapti ekan? Olimning fikricha, shoir keyingi qit'ani go'yo xuddi tug'ilajak shu shubhani o'quvchi ko'nglidan quvib tashlash uchun yozgan yoki kamida uni ayni shu maqsadda devonning anashu eriga joylashtirgan.

Qit'aga: «O'zlukdin qutulmoqsuhbatida va ananiyat tarki shiddatida», ya'ni «O'zlikdan qutulish suhbati(qiyinchiligi)da va menlikdan kechish shiddat(mashaqqat)ida» – deb sarlavha qo'yilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Navoiyshunos S.Olim shu tariqa Navoiy qit'alari, xoh bitta devondan, hox boshqa-boshqa devonlardan o'ren organiga qaramay, mazmun va mantiq jihatdan bir-birini to'ldirib borishini, ya'ni shoir ular orqali naqshbandiya tariqatining g'oyalarni birma-bir ochib borishini isbotlashga intiladi. Ushbu maqolada Sultonmurod Olim Navoiy qit'alari misolda naqshbandiya g'oyalari shoir asarlarining mag'zi-mag'ziga singib ketganligini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilganligi haqida fikr yturtiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'zlikdan qutulish, menlikdan xalos bo'lism oson ish emas. Olim shoirning to'rtinchi qit'aga beshinchi qit'ani mahorat bilan bog'laganligini ta'kidlab, buni solikning Ollohga etishish yo'lini kemaning suzishiga solishtirib turgan kitobxonning endi ana shu suvda o'z tanini bir taxta yanglig' suzib yurgan kabi his etishiga imkon berishiga diqqatni tortadi. Navoiyshunosning fikricha, shoir ko'ngilga murojaat qilishyo'li bilan unga aytadi:

*Ey ko'ngul, tan taxtasin bu qa'ri yo'q girdobdin,
Istasang sohilga chekmak, bilki, bu – oson emas.
Piru iste'dodu tavfiqo'lmasa, bo'lmas bu ish,
Kimdururkim, bag'ri bu hasratdin oning qon emas[4].*

Ya'ni, ey ko'ngil, tan taxtasi(vujud)ni bu tubsiz girdobdan sohilga –qirg'oqqa etkazishni istasang, bu jo'n ish emas,bu ishda pir (ustoz, yo'lboshlovchi), iste'dod va tavfiq (moslik) bo'lmasa, bu hasratdan uning bag'ri qon bo'ladi.

Olim bu qit'ani shunday sharhlaydi: tan taxtasi – vujudni qa'ri yo'q girdobdan qirg'oqqa chiqarish, aniqrog'i, bu dunyo tashvishlaridan qutultirib olish oson emas. Bu yerda solikning oliv maqsadga yetishi ko'zda tutilgan. Buning uchun esa, birinchidan, pirkerak, ikkinchidan, iste'dod. Solikning o'zidaki iste'dod bo'lmasa, ming pir ham uni maqsadi sari yetaklay olmaydi. Uchinchidan, tavfiq, ya'ni muvofiqlik ham kerak. Demak, qit'ada pir bilan iste'dod egasining maqsadlari muvofiq kelishi, ya'ni solikning pir etagiga yurishi-yu, piring asl yo'lni ko'rsatishi ko'zda tutilgan. Pir va iste'dod muvofiq kelgandagina muvaffaqiyat qo'lga kiradi. Qit'aning oxirgi misrasida «bu hasratdan bag'ri qon bo'lish» kerakligi ham aytilganki, bu ana shu pir-u iste'dod-u ularningo'zaro muvofiq kelishi ham *yurakning qoni bilan qo'lga kiradi* (*ta'kid bizniki* – E.N.), degani[2.93].

Shu o'rinda aytib o'tishni joiz deb bildikki, bizningcha, qit'aning oxirgi ikki misrasida shoir pir va solik iste'dodi o'zaro mos kelishi olim aytganiday «yurakning qoni bilan qo'lga kir»maydi, balki buning uchun, avvalo, ularning bag'irlari – qalblari bu hasrat, ya'ni dunyo tashvishlaridan qutulish dardida qon bo'lishlari – shu dard bilan yonishlari lozim.

Navoiyshunos qit'alar bo'yicha fikrlarini davom ettirar ekan, diqqatni pir bilan murid(iste'dod egasi)ning maqsadlari muvofiq kelish-kelmasligiga emas, balki qit'alararo o'zaro muvofiqlikka qaratadi. Ya'ni to'rtinchi qit'a bilan beshinchi qit'aning faqat mazmun tarafidan emas, ifodaviytasviriy jihatdan, demak, shaklan ham bog'lanadi: ularning ikkalasida ham suv va suzish, kema (yo tan taxtasi) va qirg'oq masalasi qo'yilgan[2.94].

Olim tasavvuf, ya'ni sufiyona

adabiyotuchun zarur bo'lgan bir masala – faqrlik masalasiga oydinlik kiritishga harakat qiladi: faqrlik – kambag'allik ma'nosini anglatishini bilgan holda, boshqa tasavvufiy istilohlar kabi, bu sufiy atama ham bir ramz ekanini unutmaslikni ta'kidlaydi. Olimning fikricha, faqr targ'ibini odatdag'i hayotdan batamom voz kechish, eb-ichishni radetish, hatto uylanmaslik, bola-chaqa qilmaslik, deb tushunmaslik zarur. Chunki, g'arb sharqshunosi J.S.Trimingem to'g'ri ta'kidlaganidek, faqr ko'proq sufiyning ichki holi – kayfiyatini ifodalaydigan tushuncha[6]. Shundan kelib chiqqan olim inson, ya'ni solik ham zohiran boy bo'lsa ham, lekin u Olloh oldida bu boylikning hech nimaga arzimasligini hech mahal unutmasligini ta'kidlaydi[2.94].

Darhaqiqat, naqshbandiya ta'llimotiga ko'ra, sufiy zohiran boylikka ega bo'lgani bilan botinan – qalban o'zini hamisha faqr holatida sezishi kerak. Olim shoirning ana shu g'oyani rivojlantririb, dunyo boyliklariga ko'ngil qo'ymaslik, bandaning har lahza Tangri oldida behad kambag'al – ojiz ekanligini tan olishi, yana ham muhimrog'i – ana shu boyliklarning qanday yo'l bilan, ya'ni halol mehnat ketidanmi yo tekini, yoxud qonuniymi yo g'ayriqonuniy yo'llar bilanmi, topilganiga diqqatni tortayotganligini aytadi.

Olim Navoiy «G'aroyib us-sig'ar»ning oltinchi qit'asi sharhiga o'tishdan oldin atoqli shoir Erkin Vohidovning bir she'ridan quyidagi misrani keltiradi:

Oshiqu ishqqu mashaqqat[7.51]...

Ya'ni dunyoviy ma'noda tushunilsa ham,falsafiy-tasavvufiy ma'noda tushunilsa ham, ishq va oshiqlik – koni mashaqqat.

Navoiy «G'aroyib us-sig'ar»ning oltinchi qit'asiga kelib aql va tirikchilik mashaqqati «dushvorligi», oshiqlik yo'liga kirgan kimsaning jununga qaror bermagi haqida gap boshlaydi va buni sarlavhadayoq bildirib o'tadi: «Aqlning barcha tariqidamaoshni (tirikchilikni. – S.O.) dushvor bilmag-u, jununga qaror bermak».

Navoiyshunos olim to'qqiz baytdan iborat bu qit'ani baytma-bayt sharhlar ekan, unda bayon etilgan fikrlarni, jumladan, maqsad yo'liga kirgan solik yoki, umuman, ulug' ezgulikni orzulagan kishi tirikchilikning u yo bu tarzda, yaxshi yo yomon o'tayotganiga sira ham e'tibor bermasligi, odamlardan ta'ma qilishning ham bahridan o'tish uchun mardonaliq ekanligi, ishqda asir bo'lgan oshiqqa visoldan darak etavermasa, uning dard-u balolarga hamdam-u hamxona bo'la olish zarurligi, nafs lazzatlaridan voz kechgandangina salomatlik mevalari qo'lga kirishini, lekin buning uchun avva lo'sha mevaning daraxtini ekish uchun farzonalik, ya'ni donishmandlik lozimligi, «yolg'izlik nuridan ko'zim yorishsin», degan kishi uchundo'stlarni sog'inish sham'iga parvonalik zarurligi, «yig'ilganlarni murid va o'zimgashogird ma'nosida mute' bo'lsin», – desa, bu odam davradagilarga ko'p yaxshi so'zlaru afsonalar aytishi uchun afsonalik lozimligi, solik o'z botin harimi – qalbida halovat xazinalarini topishni tilasa, zohir – jism uyi asosiga vayronalik kerakligi, ya'ni

uning ko'ngli uchun jismidan kechishi zarurligi, solik zohiran mansab-u izzat-u tojga intilaverish mumkinligi, ammo asosiy masalada – ishq yo'lida dur yanglig' pok bo'lib qolaverishi lozimligini naqshbandiya tariqatining muayyan shartlari baholaydi[2.96].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, S.Olimov ilmiy tadqiqotlarida shaxsiyat va ma'rifiy-badiiy tafakkur talqinlarining o'rganilishini quyidagicha talqin etish mumkin:

- birinchidan, atoqli navoiyshunos olim Sultonmurod Olimov o'zining bir qator tadqiqotlarida Hazrat Navoiyning «nazariy-falsafiy jihatdan, ya'ni dunyoqarash-u mafkura ma'nosida» tayangan manbalardan uchinchisi bo'lgan tasavvuf falsafasi, unda shoir doxil bo'lgan tariqat – naqshbandiya bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borib, o'zining ilmiy asosga ega bo'lgan xulosalarini bayon qiladi;

- ikkinchidan, olim o'zining 1996-yilda Toshkentdag'i "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan "Naqshband va Navoiy" nomli monografiyasida dastlab Bahouddin Naqshband shaxsiyatini aniqlashga, bu ulug' zotning «Balogardon» rutbasi bilan nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Pokiston, shuningdek, arab davlatlarida ham mashhurligi sababini ochib berishga harakat qiladi. Olim ushbu tadqiqoti mobaynida naqshbandiya tariqati, uning yassaviyadan farqli jihatlari, naqshbandiya ta'lilotining adabiyotimizga ta'sirini o'rganish asosida Alisher Navoiyning Bahouddin Naqshband va u kishi takomillashtirgan tariqat aqidalariga munosabatini ko'rsatib beradi. S.Olimovning fikricha, shu paytlargacha Alisher Navoiy ijodiyotini naqshbandiya tariqati g'oyalari bilan uziyi aloqadorlikda ko'zdan kechirishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yaratilmaganligi sabablihozirgi sharoitda har bir navoiyxon bu masalada o'zicha izlanishga majbur. Shuning uchun Abdusalom Abduqodirovning Navoiyning naqshbandiyaga munosabatini o'rganishni hozirgi o'zbek adabiyotshunosligining birinchi darajali rejali qatoriga qo'shganligini ma'qullaydi;

- uchinchidan, monografiyaning «Qit'alarga singgan qat-qat g'oyalari» bobida Alisher Navoiy she'riyatida naqshbandiya tariqati g'oyalaring talay jihatlari talqin qilinib, tahlil etilgan, sharhlangan, targ'ib qilinganligi shoirning mazkur falsafaning u yobu masalasiga bevosita munosabatini aniqlash imkonini berishini ta'kidlaydi va buni ulug' shoirning «G'aroyib us-sig'ar» devoniadagi qit'alarning dastlabkibir nechtasining tahlili misolida isbotlashga harakat qiladi;

– to'rtinchidan, devondagi uchinchidan oltinchigacha qit'alarining, garchi bir qarashda alohida-alohida tasavvufiy istilohlar talqiniga doir asarlar sifatida qabul qilinsa-da, shoir tomonidan o'ziga xos betakror tartibda joylashtirilanligi sabab, o'n baytdan iborat ettinchi qit'ada ana shu istilohlarning bari qayta tilga olinishiga e'tiborni qaratadi va bundan go'yo oldingi qit'alar aynan shu ettinchi qit'anitushunish uchun bitilgandek, degan fikrga kelish mumkinligini ta'kidlaydi. Qit'ada Hazrat Navoiy naqshbandiyaning xojagon jamoasiga Yusuf Hamadoniydan meros bo'lib o'tgandastlabkito'rt shiorini qayd etib o'tganligini va oxirgi baytda o'z maqsadini bayon etish bilan ana shu qit'asi bilan o'zining naqshbandiya tariqati vakili ekanini ochiq qayd etganligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Olim S. Shayxlar karomati (Navoiy va ekstrasenslar).—«O'zbekiston adabiyoti va san'ati»;
2. Olim S. Naqshband va Navoiy. – Toshkent, "O'qituvchi", 1996;
3. Abduqodirov A. Navoiy va naqshbandiylik.—«Adabiy meros», 1991, 4-son;
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 3-jild. – Toshkent, 1988, 541–542-betlar;
5. Farididdin Attor. «Tazkirat ul-avliyo». Turkiya turkchasidan o'zbek turkchasiga uyg'unlashtirgan Mirzo Kenjabek.—“O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1993, 18 iyun.
6. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М., 1989, с. 49-50.
7. Erkin Vohidov. Muhabbat. – Toshkent, 1977, 51-bet.